



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 25-sentabr

489-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2024-yil 12-sentabrdagi PQ–323-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 23-sentabrdagi 439-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2024-yil 12-sentabrdagi PQ–323-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 23-sentabrdagi 439-6-0-Q/24-sonli qarorlarini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2024-yil 12-sentabrdagi PQ–323-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 23-sentabrdagi 439-6-0-Q/24-sonli qarorlari rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Samarqand viloyati hokimligi hamda keng jamoatchilikning 2024-yilda Samarqand shahrida Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi;

Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita ilovaga muvofiq tarkibda tuzilganligi;

Tashkiliy qo‘mita (A. Aripov):

a) bir hafta muddatda Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini nishonlash bo‘yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturini mas‘ul ijrochilar va moliyalashtirish manbalarini belgilagan holda tasdiqlashi:

mamlakatimizdagi Mirzo Ulug‘bek nomi bilan bog‘liq obyektlarni, shu jumladan; Mirzo Ulug‘bek sharafiga barpo etilgan yodgorlik majmualarini mukammal ta‘mirlash va ularning hududlarini obodonlashtirish;

alloma ilmiy-ijodiy merosiga mansub qo‘lyozma va boshqa madaniy boyliklarni restavratsiya qilish, ularni ishonchli saqlash uchun zarur sharoit yaratish;

Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligiga bag‘ishlab “Jahon tamadduni rivojida Mirzo Ulug‘bek ilmiy-ma‘rifiy merosining o‘rni va ahamiyati” mavzusida ilmiy-adabiy tadbirlar o‘tkazish;

davlat teatrlari va talabalar teatr-studiyalarida Mirzo Ulug‘bek hayoti va faoliyatiga oid spektakllar sahnalashtirish;

Mirzo Ulug‘bekning boy merosini o‘rganish maqsadida xalqaro miqyosda keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e‘lon qilish, shu mavzuda ilmiy, badiiy-publitsistik asarlar yaratish, xorijiy olimlarning asarlarini uzbek tilida nashr qilish;

Mirzo Ulug‘bek siymosi tasvirlangan, uning shaxsi, davlat arbobi sifatidagi faoliyati va allomaning ilmiy-ma‘rifiy merosiga bag‘ishlangan ko‘rgazmali axborot vositalarini tayyorlash, media mahsulotlar va audiovizual asarlar yaratish, ularni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, internet hamda ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish;

O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi elchixonalari, o‘zbek milliy madaniy markazlari, vatandoshlar jamiyatlarida Mirzo Ulug‘bekning davlat arbobi sifatidagi faoliyati va ilmiy-ma‘rifiy merosi, uning insonparvarlik g‘oyalapini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida ilmiy anjumanlar va davra suhbatlari tashkil etish;

b) Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Samarqand viloyati hokimligi tomonidan Samarqand shahrida 2024-yil 10-11-oktabr kunlari “Mirzo Ulug‘bek: buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi” mavzusidagi xalqaro konferensiya o‘tkazilishini tashkil etishi. Bunda xalqaro konferensiyani o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar Samarqand viloyati hokimligi hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan teng ulushda qoplanishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi tuman bo‘limi (D.Jo‘raboyeva), tuman Madaniyat bo‘limi (R.Xoliqova), tuman Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (O.Xo‘jayev), Yoshlar ishlari tuman bo‘limi (M.Mamasobirov) hamda tegishli tashkilot, idora va muassasalar bilan birgalikda Mirzo Ulug‘bekning hayoti, uning davlat arbobi sifatidagi faoliyati hamda jahon ilm-fani va tamadduni rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida, shuningdek, ta‘lim tashkilotlari va mehnat jamoalarida keng targ‘ib qilishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman hokimligining “Mingbuloq” gazetasi (Q.Akbarov)ga Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini nishonlash bilan bog‘liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov